

PYTHON DASTURLASH TILIDA SONLAR USTIDA BAJARILADIGAN AMALLAR

**Toshpo’latov Hamdam Bekmuhammadovich
Jizzax Davlat pedagogika universiteti Informatika va
raqamli ta’lim texnologiyalari kafedrası o’qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda juda muhim bo’lgan soha kompyuter dasturlash sohasi, xususan python dasturlash tili va bu dasturlash tilida sonlar ustida bajariladigan amallar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: python, dastur, dasturlash tili, abs, round, min, max, pow

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish va milliy bozorini rivojlantirish bo’yicha qator choralar ko’rilmogda. Dasturlash tillari sohasida mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilyapti. Hozirgi dolzarb muammolardan biri dasturlash bo’yicha yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun python dasturlash tilini o’rganish ayni muddao bo’ladi. Python dasturlash tili boshqa dasturlash tillariga nisbatan o’rganish ancha oson bo’lganligi va o’zining boy kutubxonalar bazasiga egaligi bilan bugun dastruchilar orasida eng ommabop dasturlash tillaridan biriga aylanib ulgurdi.

Keling biz python dasturlash tilida sonlar ustida bajariladigan amallar bilan tanishaylik.

f-string

Ikki (va undan ko’p) matn ko’rinishidagi o’zgaruvchilarni birlashtirish uchun f-string usulidan `f"{matn1} {matn2}"` ham foydalansak bo’ladi:

```
ism = "Asqar"
```

```
familiya = 'Umarov'
```

```
ism_sharif = f"{ism} {familiya}"
```

```
print(ism_sharif)
```

```
#Asqar Umarov
```

Bu usul yordamida uzun matnlarni ham yasash mumkin:

```
ism = "Sardor"
```

```
familiya = 'Baxtiyorov'
```

```
print(f"Salom, mening ismim {ism}. {ism} {familiya}!")
```

```
#Salom, mening ismim Sardor. Sardor Baxtiyorov!
```

Bu usuldan foydalanganimizda figurali qavslar Ichida ifodalarni ham yozishimiz mumkin bo’ladi.

```
a=5
```

```
c=4
```

```
print(f"{a}+{c}={a+c}; {a}-{c}={a-c}; {a}x{c}={a*c}; {a}:{c}={a/c};")
```

```
#5+4=9; 5-4=1; 5x4=20; 5:4=1.25
```

O’zgaruvchi turini aniqlash

Oldingi mavzularimizda aytib o’tganimizdek, Python dasturlash tilida bir nechta ma’lumotlar turlari bor. Ular o’zlariga xos ma’lumotlarni ifoda qiladi. Va har qanday ma’lumotlar turi uchun o’zlariga mumkin bo’lgan operatorlar va funksiyalar bor. Dastur tuzish jarayonida biror bir ma’lumot turi uchun, unga mos bo’lmagan funksiya yoki operatorni qo’llasak, dastur bajarilish jarayonida interpretator buni xatolik deb topadi va xatolik xaqida xabar beradi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Shunday noxush xolatlarni oldini olish uchun dasturlash jarayonida o‘zgaruvchilarga biror funksiya yoki operatorni qo‘llashdan oldin uning turini aniqlab olishga to‘g‘ri keladi. Bu vazifalarni bajarish uchun python dasturlash tilining ma’lumot turini aniqlovchi `type()` funksiyasi bor.

```
x = 5
print(type(x)) #<class 'int'>
x = "5"
print(type(x)) #<class 'str'>
x = 5.0
print(type(x)) #<class 'float'>
x = True
print(type(x)) #<class 'bool'>
```

Demak python dasturlash tilida ma’lumot turini aniqlash uchun `type()` funksiyasidan foydalanishimiz kerak ekan.

Endi dasturlash jarayonida yana tez-tez ishlatiladigan amallardan biri bu ma’lumotlar turlarini almashtirish amallaridir. Buning uchun ma’lumotlar turini bir turdan ikkinchi turga almashtirib beruvchi maxsus funksiyalar mavjud. Buni quyidagi misolda ko‘raylik:

Uchburchakning asosi a va balandligi h berilgan. Uning yuzini topish dasturini tuzing.

Demak bizda uchburchakning asosi va balandligi berilgan. Bizdan berilgan qiymatlar bo‘yicha uchburchakning yuzasini hisoblab, natijani chop etish so‘ralayapti. Bu masalada biz asos a va balandlik h ni ma’lumotlarni muloqot holda kiritish funksiyasi `input()` bilan kiritishimiz kerak. Lekin `input()` funksiyasi bilan kiritilgan ma’lumotlarni interpretator satrli ma’lumot deb qabul qiladi. Bizga esa arifmetik amallarni bajarish uchun sonli ma’lumotlar kerak bo‘ladi. Biz foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlarni sonli ma’lumotlarga o‘zgartirib olishimiz kerak. Bizga oldingi mavzularimizdan ma’lumki python dasturlash tilida 3 ta sonli ma’lumotlar turi bor edi: `int`(butun), `float`(haqiqiy) va `complex`(kompleks). Biz bu masalada uchburchakning o‘lchamlari haqiqiy sonlar to‘plamida kiritiladi deb hisoblab, dasturni shunga moslab tuzamiz. Buning uchun bizga ma’lumotlar turini haqiqiy songa o‘zgartirib beruvchi funksiya kerak bo‘ladi. Python dasturlash tilida bu funksiya `float()` funksiyasidir.

```
a=float(input("Uchburchakning asosini kiriting a="))
h=float(input("Uchburchakning balandligini kiriting h="))
print("Uchburchakning yuzi S=", a*h/2)
```

Ma’lumotlarni turini o‘zgartiruvchi funksiyalar:

- `int()` – ma’lumotlarni butu songa o‘zgartirib beradi
- `float()` – ma’lumotlarni haqiqiy songa o‘zgartirib beradi.
- `str()`- ma’lumotni satrga o‘zgartirib beradi.
- `bool()`- ma’lumotni mantiqiy turga o‘zgartirib beradi.

Ma’lumotlar turlarini o‘zgartiruvchi boshqa funksiyalar ham bor ular haqida keyingi mavzularimizda gaplashamiz.

Pythonda o‘zlashtirish operatorlari

Operator	ishlatilishi	Teng kuchli
<code>x=5</code>	<code>x=5</code>	<code>x=5</code>
<code>+=</code>	<code>x+=6</code>	<code>x=x+6</code>
<code>-=</code>	<code>x-=8</code>	<code>x=x-8</code>
<code>*=</code>	<code>x*=2</code>	<code>x=x*2</code>

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

/=	x/=4	x=x/4
%=	x%=6	x=x%6
//=	x//=3	x=x//3
=	x=9	x=x**9

Python dasturlash tilida matematik amallarni bajarish uchun matematik funksiyalar mavjud.

Ichki(o‘rnatilgan) matematik funksiyalar:

-**min(a, b, c)**- berilgan argumentlar ichidan kichkinasini topadi

-**max(a, b, c)**- berilgan argumentlar ichidan kattasini topadi

-**abs(x)**- x sonning absolut qiymatini topadi

-**pow(x, y)**- x sonini y darajaga ko‘taradi

-**round(a, m)**-berilgan a sonini m-xonasigacha yaxlitlaydi

-**divmod(a, b)**-a sonini b soniga bo‘lib bo‘linmaning butun qismini va qoldiqni topadi.

round(x) funksiya sonning butun qismigacha yaxlitlaydi, round(x,n) funksiyasi sonning n – xonasigacha yaxlitlaydi, pow(x,y)=x**y ga teng kuchli va a,b=divmod(x,y) funksiyasi bir vaqtda x ni y ga bo‘lib butun va qoldiq qismlarini oladi. Funksiyali amallarni ishlash jarayoni tushunarli bo‘lishi uchun, ularni interaktiv rejimda sinab ko‘ramiz.

```
Python 3.9.7 (tags/v3.9.7:1016ef3, Aug 30 2021, 20:19:38) [MSC v.1929 64 bit (AMD64)] on win32
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.
>>> a,b,c=8,7,6
>>> print(min(a, b, c))
6
>>> print(max(a, b, c))
8
>>> |
```

```
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.
>>> y=-5
>>> abs(y)
5
>>> x=12.32568
>>> round(x)
12
>>> y=13.652
>>> round(y)
14
>>> round(13.652,2)
13.65
```

```
>>> a=2
>>> b=3
>>> pow(a,b)
8
>>> a=5
>>> b=2
>>> x,y=divmod(a,b)
>>> x
2
>>> y
1
>>>
```

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tashpulatov H. B. Peculiarities of using mental map in the process of forming algorithmic thinking in the process of teaching future teachers in mathematics and computer science //Thematics Journal of Education – 2022 – T.7.– №. 5.

2. Tashpulatov X. Объектно-ориентированное программирование как эффективное средство развития алгоритмического мышления студентов //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В8. – С. 2268-2275.